



## INKLYUZIV TA'LIM: MUAMMO VA ISTIQBOLLAR

*Pulatova Shohista Alisher qizi*

*Toshkent Amaliy Fanlar universiteti*

*Tarix fakulteti 3 bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada inklyuziv ta'limning mohiyati, uning zamonaviy ta'lism tizimidagi o'rni, dolzarbligi, mavjud muammolar hamda istiqbollari tahlil qilingan. Shuningdek, O'zbekistonda inklyuziv ta'limni rivojlantirish yo'nalishlari va bu sohada amalgalayotgan islohotlar haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** inklyuziv ta'lim, imkoniyati cheklangan bolalar, differensial yondashuv, pedagogik integratsiya, psixologik qo'llab-quvvatlash.

**Аннотация:** В статье анализируется сущность инклюзивного образования, его роль в современной системе образования, его актуальность, существующие проблемы и перспективы. В ходе обсуждения также были обсуждены направления развития инклюзивного образования в Узбекистане и реформы, реализуемые в этой сфере.

**Ключевые слова:** инклюзивное образование, дети с ограниченными возможностями, дифференцированный подход, педагогическая интеграция, психологическая поддержка.

### **Kirish**

Inklyuziv ta'lim — bu barcha bolalar, shu jumladan jismoniy yoki aqliy imkoniyatlari cheklangan bolalar uchun umumiylar ta'lism tizimida birgalikda o'qitish va tarbiyalashni nazarda tutuvchi pedagogik yondashuvdir. Ushbu konsepsiya har bir bolaga uning ehtiyojlariga mos ta'lim olish imkoniyatini yaratishga qaratilgan. Inklyuziv ta'lim bugungi kunda inson huquqlari, ijtimoiy tenglik va barqaror rivojlanish g'oyalarining ajralmas qismi sifatida qaralmoqda.

### **Inklyuziv ta'limning maqsadi va ahamiyati.**



Inklyuziv ta’lim tizimining asosiy maqsadi — har bir bolaning shaxsiy qadr-qimmatini hurmat qilgan holda, ularning to‘laqonli ta’lim olishini ta’minlashdir. Bu model orqali imkoniyati cheklangan bolalar o‘z tengdoshlari bilan birga o‘qish, ijtimoiylashish, jamiyatga moslashish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

### **Inklyuziv ta’limni joriy etishdagi asosiy muammolar**

1. Pedagog kadrlar tayyorlashdagi muammolar: Hozirda ko‘plab pedagoglar inklyuziv ta’lim metodikasi bo‘yicha yetarli malakaga ega emas.

2. Material-texnik baza yetishmovchiligi: Maktablarda nogironligi bor o‘quvchilar uchun moslashtirilgan sinflar, transport, darsliklar va o‘quv vositalari yetarli emas.

3. Jamiyatdagi stereotiplar: Imkoniyati cheklangan bolalarga nisbatan ayrim ijtimoiy salbiy qarashlar mavjud bo‘lib, bu ularning integratsiyasini qiyinlashtiradi.

O‘zbekiston tajribasi va istiqbollar O‘zbekistonda 2019-yil “Ta’lim to‘g‘risida”gi yangi qonunda inklyuziv ta’lim alohida qayd etilgan. Bundan tashqari, Prezident farmonlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari orqali inklyuziv ta’limni rivojlantirish dasturlari qabul qilindi. Bugungi kunda qator umumiy o‘rta ta’lim maktablarida inklyuziv sinflar tashkil etilmoqda, maxsus darsliklar va metodik qo‘llanmalar yaratilmoqda. 2023–2025-yillarda inklyuziv ta’limni bosqichma-bosqich joriy etish strategiyasi asosida bu yo‘nalish kengaytirilmoqda.

### **Pedagogik yondashuvlar**

Inklyuziv ta’limda quyidagi zamonaviy pedagogik yondashuvlar qo‘llaniladi:

Differensial yondashuv: Har bir o‘quvchining qobiliyati va rivojlanish sur’atiga qarab o‘qitish.

Individual o‘quv rejali: Har bir bolaga individual ta’lim strategiyasi ishlab chiqiladi.

Multimodal ta’lim: Matn, audio, video, grafik va boshqa ko‘rinishlar orqali bilim berish.

Qo‘llab-quvvatlovchi muhit yaratish: O‘quv muassasasining ijtimoiy va psixologik iqlimi bolaning o‘zini xavfsiz his qilishiga xizmat qilishi kerak.



## Xulosa

Inklyuziv ta'lim – nafaqat pedagogik, balki ijtimoiy-ma'naviy jarayon bo'lib, har bir bolaning jamiyatda o'z o'rnini topishiga xizmat qiladi. Bu yo'nalishda muammo va to'siqlarga qaramay, O'zbekistonda muayyan yutuqlarga erishilmoqda. Kelgusida inklyuziv ta'limni to'laqonli joriy etish uchun pedagoglar malakasini oshirish, moddiy bazani mustahkamlash hamda ijtimoiy ongni o'zgartirish zarur. Inklyuziv ta'lim — bu kelajak jamiyati uchun muhim bo'lgan ijtimoiy tenglik, bag'rikenglik va inson huquqlarining kafolati. O'zbekistonda bu yo'nalishda ijobiy natjalarga erishilmoqda, biroq hali bajarilishi kerak bo'lgan vazifalar ko'p. Har bir bola — bu jamiyatning teng huquqli a'zosi bo'lishi uchun ta'lim tizimining barcha bo'g'inlari moslashuvchan, qulay va insonparvar bo'lishi kerak.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, 2020.
2. UNESCO. Inclusive Education Guidelines for Policy Makers. 2017.
3. Rasulova G. "Inklyuziv ta'lim nazariyasi va amaliyoti", Toshkent, 2021.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 11-martdag'i "Nogironligi bo'lgan shaxslarni qo'llab-quvvatlash va ularning turmush darajasini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori.
5. Xalq ta'limi vazirligi. Inklyuziv ta'lim bo'yicha metodik qo'llanmalar, 2023.